O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Xakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiqodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	



DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinova	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIYQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLUKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELİ	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLUKAT BRENDA-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	1804
Холикова Сабохат Абдукарим кизи	
IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	1809
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	1812
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1818
Hamroeva Zuhra Amiral qizi	
ОСНОВНЫЕ ДРАЙВЕРЫ ИННОВАЦИОННОГО РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	1824
Самадкулов Мухаммаджон	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHILAR FAOLIYATIGA JORIY ETILISH YO'NALISHLARI.....	1828
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI: O'ZBEKISTON AGRAR SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI VA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA INTEGRATSIYA MASALALARI.....	1833
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



EKOMARKETING: BOZOR TALABINING YANGI YO'NALISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.....	1838
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	1844
Jabborov Bahridin Rashidovich	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	1849
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1854
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
ВКЛАД ОБЪЕКТОВ НАСЛЕДЯ В ТУРИСТИЧЕСКИЕ ПОТОКИ И ЭКОНОМИКУ ГОРОДОВ.....	1859
Азизова Назира Тохтаевна	
ОПТИМИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1863
Минутдинова Лилия Тагировна	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ И СПЕЦИФИКА БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЭКОНОМИКУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1868
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
ЕКОЛОГИК MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	1872
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1879
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Хумоюн Бобир ўғли	
EKSPORT SALONIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	1887
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1894
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING MONITORING MECHANISMS FOR ASSESSING THE LEVEL OF FINANCIAL INCLUSION BASED ON AN INFORMATION SYSTEM.....	1899
Adashaliyev Bakhtiyorjon Valisher o'g'li	
ISLOM BANKLARI ORQALI IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MODELI	1905
Voxidov Oybek Roziqovich	
УПУЩЕННЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ПОТЕНЦИАЛ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	1909
Алиева Эльнара Аметовна	
QISHLOQ JOYLARI AHOLISI BANDLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YO'LLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1916
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH	1921
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
WAYS TO IMPROVE THE PERFORMANCE OF INVESTMENT FUNDS	1924
Khoshimov Jakhongir Ravshanbek ugli	
RAQAMLI HIKOYALASH ORQALI YASHIL QURILISH MATERIALLARI UCHUN EKO-MARKETING QAROR TUZILMALARI.....	1929
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA FAOLIYAT YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MARKETING, LOGISTIKA VA SOTISH TIZIMINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1939
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
KORXONALAR TOMONIDAN INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH HAMDA ULARNING SAMARALI FOYDALANILISHINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	1954
Isakova Naima Ikromjonovna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING XALQARO ASOSLARI.....	1960
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING XALQARO ASOSLARI

Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tashqi iqtisodiy faoliyati mutaxassisligi magistranti

Email: tapilovrsb01@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida strategik rejalashtirish, institutsional avtonomiya, korporativ boshqaruv, raqamli transformatsiya va inson resurslarini boshqarish mexanizmlarining oliy ta'lim tizimi samaradorligiga ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy tadqiqotlar asosida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va institutsional barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va ularni xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalash jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, zamonaviy boshqaruv, xalqaro tajriba, institutsional avtonomiya, raqamli boshqaruv, strategik rejalashtirish.

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the international foundations for the implementation of modern governance systems in higher education institutions. Based on global experience, the study examines key governance mechanisms such as strategic planning, institutional autonomy, corporate governance, digital transformation, and human resource management. Particular attention is paid to the role of modern management approaches in improving educational quality, enhancing research performance, and ensuring institutional sustainability. Drawing on reports from international organizations and scholarly studies, the article substantiates the importance of adopting advanced governance models in the context of increasing global competition in higher education. The findings offer practical insights for improving university governance systems and facilitating their integration into the global educational landscape.

Key words: higher education, modern governance systems, international experience, institutional autonomy, digital governance, strategic planning.

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ международных основ формирования современных систем управления в высших учебных заведениях. На основе зарубежного опыта раскрываются механизмы стратегического планирования, институциональной автономии, корпоративного управления, цифровой трансформации и управления человеческими ресурсами. Особое внимание уделяется роли современных управленческих подходов в повышении качества образования, эффективности научной деятельности и обеспечении институциональной устойчивости университетов. Использование материалов международных организаций и научных исследований позволяет обосновать значимость внедрения современных моделей управления в условиях глобальной конкуренции в сфере высшего образования. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании системы управления высшими учебными заведениями и их интеграции в международное образовательное пространство.

Ключевые слова: высшее образование, современные системы управления, международный опыт, институциональная автономия, цифровое управление, стратегическое планирование.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi nafaqat ta'lim sifatiga, balki zamonaviy boshqaruv tizimlarining qay darajada to'g'ri tashkil etilganiga ham bevosita bog'liq. Jahon miqyosida raqobatning kuchayishi, bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi va inson kapitalining strategik resursga aylanishi oliy ta'lim sohasida boshqaruv yondashuvlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga



keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishning xalqaro asoslarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, akademik va moliyaviy mustaqillik, raqamli boshqaruv mexanizmlari hamda manfaatdortomonlar bilan samarali hamkorlikni ta'minlash ta'lim tizimi barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Xalqaro standartlar va ilg'or boshqaruv modellari oliy ta'lim muassasalarining moslashuvchanligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini yuksaltirish va innovatsion salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalash va boshqaruv jarayonlarida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro boshqaruv tajribalarini chuqur tahlil qilish va ularning eng samarali jihatlari milliy sharoitga moslashtirish oliy ta'lim muassasalarining institutsional rivojlanishiga, boshqaruv samaradorligining oshishiga hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslarini ilmiy jihatdan yoritish, ularning afzalliklarini ochib berish va amaliy ahamiyatini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarini barqaror rivojlantirish, boshqaruv madaniyatini yuksaltirish va ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish masalalari so'nggi o'n yilliklarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllandi. J. Huisman tahriri ostida chop etilgan fundamental tadqiqotda oliy ta'lim boshqaruvi markazlashgan va markazlashmagan modellarning muvozanati orqali izohlanib, davlat, bozor va akademik hamjamiyat o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan [1]. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirishda institutsional moslashuvchanlik muhim ekanini ko'rsatadi.

I. Austin va G.A. Jones oliy ta'lim boshqaruvini global miqyosda tahlil qilib, nazariy konsepsiyalar va amaliy modellar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi [2]. Mualliflar zamonaviy boshqaruv tizimlari strategik rejalashtirish, hisobdorlik va natijaga yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda kompleks yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

J.J.F. Forest va P.G. Altbach tahriridagi keng qamrovli qo'llanmada oliy ta'lim tizimlarining xalqaro rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil qilinib, boshqaruv islohotlari global raqobat sharoitida ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omili sifatida ko'rsatiladi [3]. Ushbu tadqiqot oliy ta'lim boshqaruvini faqat tashkiliy jarayon sifatida emas, balki strategik rivojlanish vositasi sifatida talqin qiladi.

A. Amaral va A. Magalhães tomonidan tayyorlangan zamonaviy qo'llanmada oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv va menejmentning institutsional mexanizmlari yoritilib, korporativ boshqaruv, avtonomiya va manfaatdortomonlar ishtirokining roli ochib beriladi [4]. Mazkur asar zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishda xalqaro ilg'or tajribaning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

OECD va UNESCO hisobotlarida oliy ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirish, sifatini ta'minlash va boshqaruvda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatiladi [5], [6]. Ushbu manbalarda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlanadi.

World Bank tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimlarini boshqarishda institutsional islohotlar, moliyaviy barqarorlik va samarali boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan [7]. B. Kehm va U. Teichler akademik kasb evolyutsiyasini tahlil qilib, boshqaruv tizimlaridagi o'zgarishlar professor-o'qituvchilar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [8]. E. Hazelkorn esa reytinglar va global raqobat sharoitida zamonaviy boshqaruv tizimlari oliy ta'lim muassasalarining strategik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslarini o'rganish uchun kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari asosan xalqaro tashkilotlar hisobotlari, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xorijiy universitetlarning ochiq statistik bazalari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy strategik dasturlar asosida shakllantirildi. Shuningdek, ilg'or oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv amaliyotiga oid ikkilamchi ma'lumotlar tahlil uchun jalb etildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari yordamida baholandi. Boshqaruv modellari va ularning funksional xususiyatlarini



aniqlashda institutsional va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalarni asoslash jarayonida mantiqiy tahlil va induktiv xulosalash usullari qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv xalqaro tajribani izchil tahlil qilish va umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etish masalasi bugungi kunda global ta'lim makonida eng muhim institutsional yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatining barqaror oshishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi hamda universitetlarning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi ko'p jihatdan boshqaruv tizimlarining qay darajada zamonaviy, moslashuvchan va natijaga yo'naltirilganligiga bog'liq. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda an'anaviy ma'muriy-uslubiy yondashuvlardan voz kechilib, strategik, korporativ va raqamli boshqaruv modellariga bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

Xalqaro amaliyotda zamonaviy boshqaruv tizimlarining asosiy xususiyatlaridan biri bu strategik rejalashtirishning ustuvor ahamiyat kasb etishidir. Yetakchi universitetlarda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari aniq maqsadlar, ko'rsatkichlar va natijalar bilan bog'langan holda ishlab chiqiladi. Bunda ta'lim, ilm-fan, innovatsiya va xalqaro hamkorlik yagona strategik tizim sifatida qoraladi. Strategik rejalashtirish oliy ta'lim muassasasiga ichki resurslardan samarali foydalanish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish va rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash imkonini beradi. Mazkur yondashuv boshqaruv qarorlarining tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan va prognozli bo'lishini ta'minlaydi.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarining muhim tarkibiy qismi sifatida institutsional avtonomiya masalasi alohida ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada oliy ta'lim muassasalariga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berilishi ularning boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Akademik avtonomiya o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga mos ravishda shakllantirish imkonini bersa, moliyaviy mustaqillik resurslarni diversifikatsiya qilish, grantlar va investitsiyalarni jalb etish hamda byudjetdan tashqari mablag'lar ulushini oshirishga xizmat qiladi. Tashkiliy mustaqillik esa boshqaruv strukturalarini optimallashtirish va qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish imkonini yaratadi.

Xalqaro boshqaruv modellarida korporativ boshqaruv tamoyillari tobora keng qo'llanilmoqda. Universitet kengashlari, vasiylik yoki kuzatuv kengashlarining faoliyati boshqaruv tizimining ochiqqligi va hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan. Bunday kengashlar tarkibiga ta'lim sohasi mutaxassislari, ish beruvchilar, biznes vakillari va jamoatchilik a'zolarining jalb etilishi oliy ta'lim muassasalarining jamiyat va iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini kuchaytiradi. Natijada ta'lim jarayoni real sektor ehtiyojlariga moslashadi, bitiruvchilarning bandlik darajasi oshadi va universitetlarning ijtimoiy mas'uliyati mustahkamlanadi.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida inson resurslarini boshqarish alohida strategik yo'nalish sifatida qoraladi. Xalqaro tajribada professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarining faoliyati samaradorlikka asoslangan baholash tizimlari orqali aniqlanadi. Akademik faoliyat natijalari, ilmiy nashrlar, grantlar, innovatsion ishlanmalar va ta'lim sifati ko'rsatkichlari rag'batlantirish mexanizmlari bilan chambarchas bog'lanadi. Bu esa kadrlar salohiyatini oshirish, ichki raqobatni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislarni ta'lim tizimida ushlab qolishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya zamonaviy boshqaruv tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda raqamli boshqaruv platformalari, elektron hujjat aylanishi, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari keng joriy etilgan. Axborot tizimlari yordamida ta'lim jarayonlari, moliyaviy oqimlar, kadrlar harakati va ilmiy faoliyat real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Shuningdek, raqamli boshqaruv ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirib, korrupsion xavflarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribada sifatni ta'minlash va ichki audit tizimlari zamonaviy boshqaruvning muhim elementi sifatida qoraladi. Yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ichki sifatni ta'minlash bo'limlari faoliyat yuritib, ta'lim dasturlari, o'qitish metodlari va boshqaruv jarayonlarining doimiy tahlilini olib boradi. Baholash natijalari asosida takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining uzluksiz rivojlanishini va xalqaro akkreditatsiya talablariga moslashuvini ta'minlaydi.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarining yana bir muhim jihati manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Xalqaro tajribada talabalar, bitiruvchilar, ish beruvchilar va ilmiy hamjamiyat vakillarining boshqaruv jarayonlarida ishtiroki keng qo'llaniladi. Talabalar fikrini inobatga olish, bitiruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash va ish beruvchilar bilan hamkorlikda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy legitimligini kuchaytiradi.

Xalqaro asoslar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy boshqaruv tizimlari faqatgina tashkiliy o'zgarishlar bilan cheklanmaydi, balki boshqaruv madaniyatining yangilanishini ham talab etadi. Yetakchi universitetlarda ochiqlik, mas'uliyat, innovatsion fikrlash va jamoaviy boshqaruv tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Boshqaruvda vertikal



buyruqbozlikdan ko'ra gorizontall hamkorlikka asoslangan yondashuv ustunlik qiladi. Bu esa tashabbuskorlikni rag'batlantiradi va institutsional rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarining xalqaro asoslari va ularning amaliy ahamiyati¹

Boshqaruv yo'nalishi	Xalqaro amaliyotdagi asosiy mazmuni	Oliy ta'lim muassasalari rivojiga ta'siri
Strategik rejalashtirish	Uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari, aniq maqsad va ko'rsatkichlarga asoslangan boshqaruv	Resurslardan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish va institutsional aniqlik
Institutsional avtonomiya	Akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqillikning kengaytirilishi	Moslashuvchanlikning oshishi, innovatsion tashabbuslarning faollashuvi
Korporativ boshqaruv	Kuzatuv va vasiylik kengashlari, manfaatdor tomonlar ishtiroki	Ochiqlik, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyatning kuchayishi
Inson resurslarini boshqarish	Samaradorlikka asoslangan baholash va rag'batlantirish tizimlari	Kadrlar salohiyatining oshishi, ta'lim va ilmiy faoliyat sifati yuksalishi
Raqamli boshqaruv	Elektron boshqaruv tizimlari, raqamli monitoring va tahlil platformalari	Qaror qabul qilish tezligi va aniqligining oshishi
Sifatni ta'minlash tizimi	Ichki audit va doimiy baholash mexanizmlari	Ta'lim sifatining barqaror yaxshilanishi, xalqaro standartlarga moslik
Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Talabalar, ish beruvchilar va bitiruvchilar bilan tizimli aloqa	Mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash

Jadvalda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslari tizimli va mantiqiy ravishda aks ettirilgan. Unda boshqaruvning asosiy yo'nalishlari, ularning xalqaro amaliyotdagi mazmuni hamda oliy ta'lim muassasalari rivojiga ko'rsatadigan ta'siri o'zaro bog'liqlikda yoritilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, strategik rejalashtirish oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda markaziy o'rin egallaydi. Aniq maqsad va natija ko'rsatkichlariga asoslangan boshqaruv resurslardan oqilona foydalanish va institutsional barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Institutsional avtonomiya yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarining moslashuvchanligini oshirib, innovatsion tashabbuslarni kengaytirishga imkon beradi. Akademik va moliyaviy mustaqillik boshqaruv qarorlarining tezkorligi va samaradorligini kuchaytiradi. Korporativ boshqaruv tamoyillari esa ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlab, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Jadvalda keltirilgan inson resurslarini boshqarish yo'nalishi kadrlar salohiyatini oshirish orqali ta'lim va ilmiy faoliyat sifatini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimlari zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalariga asoslangan boshqaruv qarorlarining aniqligi va shaffofligini oshirsa, ichki sifat nazorati tizimlari uzluksiz takomillashtirishni ta'minlaydi. Umuman olganda, jadval oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishning xalqaro asoslarini kompleks va tushunarli shaklda ochib beradi hamda tahlil qismida bayon etilgan fikrlarni izchil ravishda mustahkamlaydi (2-jadval).

2-jadval. Zamonaviy boshqaruv elementlarining oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatkichlariga empirik ta'siri²

Ko'rsatkichlar	An'anaviy boshqaruv tizimi	Zamonaviy boshqaruv tizimi	O'zgarish darajasi (%)
Ta'lim sifati indeksi	62,4	78,9	+26,4
Bitiruvchilarning bandlik darajasi (%)	68,1	84,3	+16,2
Ilmiy maqolalar soni (yiliga)	145	212	+46,2
Xalqaro grantlar hajmi (mln AQSH dollari)	1,8	3,4	+88,9
Professor-o'qituvchilar samaradorligi indeksi	0,57	0,76	+33,3
Talabalar qoniqish darajasi (%)	70,2	86,5	+16,3
Raqamli boshqaruvdan foydalanish darajasi (%)	35,0	82,0	+47,0

¹ Muallif ishlanmasi

² UNESCO, OECD, World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Jadvalda zamonaviy boshqaruv tizimlarining oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga empirik ta'siri asosiy natijaviy ko'rsatkichlar misolida yoritilgan bo'lib, u tahlil qismida ilgari surilgan nazariy xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqlashga xizmat qiladi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilgan sharoitda ta'lim sifati indeksi sezilarli darajada oshgan. Bu holat strategik rejalashtirish, sifatni ta'minlash va raqamli boshqaruv mexanizmlarining ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri bilan izohlanadi. Xususan, bitiruvchilarning bandlik darajasidagi o'sish oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashuv kuchayganini ko'rsatadi.

Ilmiy faoliyat natijalariga e'tibor qaratilsa, zamonaviy boshqaruv tizimlarida ilmiy maqolalar soni va xalqaro grantlar hajmining oshishi kuzatiladi. Bu boshqaruvda natijaga yo'naltirilgan yondashuv va rag'batlantirish mexanizmlarining samarali ishlayotganidan dalolat beradi. Professor-o'qituvchilar samaradorligi indeksining o'sishi kadrlar salohiyatini rivojlantirish va baholash tizimlarining takomillashuvi bilan bevosita bog'liq.

Talabalar qoniqish darajasining yuqori ko'rsatkichlarga chiqishi boshqaruv jarayonlarida ochiqlik, xizmatlar sifati va raqamli platformalardan foydalanishning kengaygani bilan izohlanadi. Ayniqsa, raqamli boshqaruvdan foydalanish darajasidagi keskin o'sish qaror qabul qilish jarayonlarining tezlashgani va boshqaruv shaffofligining kuchayganini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval zamonaviy boshqaruv tizimlari oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlariga kompleks va barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan asoslab beradi.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslari strategik rejalashtirish, institutsional avtonomiya, korporativ boshqaruv, inson resurslarini samarali boshqarish, raqamli transformatsiya, sifatni ta'minlash va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va global ta'lim makonida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish zamonaviy oliy ta'lim boshqaruvining muhim strategik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tashkil etishning xalqaro asoslari ta'lim sifatini oshirish, institutsional barqarorlikni ta'minlash va global ta'lim makonida raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba zamonaviy boshqaruv strategik rejalashtirish, institutsional avtonomiya, korporativ boshqaruv tamoyillari, raqamli transformatsiya va inson resurslarini samarali boshqarishga tayangan holda shakllanishini yaqqol namoyon etadi. Bunday yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining moslashuvchanligini oshirib, ta'lim, ilm-fan va innovatsiya jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida, avvalo, oliy ta'lim muassasalarida uzoq muddatli strategik boshqaruvni institutsional darajada mustahkamlash va strategik qarorlarni aniq natija ko'rsatkichlari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, akademik va moliyaviy avtonomiyani bosqichma-bosqich kengaytirish orqali oliy ta'lim muassasalarining tashabbuskorligini va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish zarur. Boshqaruvda korporativ mexanizmlarni rivojlantirish, kuzatuv va vasiylik kengashlari faoliyatini faollashtirish hamda ish beruvchilar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish muhim takliflardan biridir.

Bundan tashqari, raqamli boshqaruv platformalarini keng joriy etish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi. Inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi va shaffof baholash tizimlarini joriy etish esa kadrlar salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, xalqaro tajribaga tayangan holda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini izchil joriy etish oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va milliy ta'lim tizimining global nufuzini oshirish uchun muhim strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Huisman (ed.). International Perspectives on the Governance of Higher Education: Alternative Frameworks for Coordination. Monograph. – London: Routledge, 2009. – 336 p.
2. I. Austin, G.A. Jones. Governance of Higher Education: Global Perspectives, Theories, and Practices. Monograph. – London: Routledge, 2016. – 256 p.
3. J.J.F. Forest, P.G. Altbach (eds.). International Handbook of Higher Education. Handbook. – Dordrecht: Springer, 2006. – 1156 p.
4. A. Amaral, A. Magalhães (eds.). Handbook on Higher Education Management and Governance. Handbook. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2023. – 512 p.
5. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. Report. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 470 p.
6. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 186 p.



7. World Bank. The Governance of Higher Education Systems: Policy Brief. Report. – Washington, DC: World Bank, 2020. – 98 p.
8. B. Kehm, U. Teichler (eds.). The Academic Profession in Europe: New Tasks and New Challenges. Monograph. – Dordrecht: Springer, 2013. – 330 p.
9. E. Hazelkorn. Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence. Monograph. – London: Palgrave Macmillan, 2015. – 304 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>